



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

Ta'lim jarayonini boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmonida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, ta'lim jarayonini boshqarishda qog'oz shaklidagi hujjatlarni raqamlashtirish yordamida o'qituvchilardagi ma'muriy yukni kamaytirish va o'quv jarayonida shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021 yil 6-sentabrdagi 284-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 26-martdagi 76-sonli buyrug'iga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat olib borayotgan 258 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2021-2022 o'quv yilidan boshlab:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining tegishli korsatmalariga muvofiq ravishda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini raqamlashtirishni jadallashtirish, qog'ozbozlikni kamaytirish maqsadida, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bosqichma-bosqich joriy etilsin.

zamonaviy axborot-kommunikatsiya joriy etilgan hamda undan samarali foydalanayotgan umumta'lim maktablari an'anaviy chop etilgan sinf jumali va qog'oz ko'rinishidagi kundaliklarni yuritishdan ozod etilsin.

3. Quyidagilar:

"Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatida avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishlash va arxivlashtirish tartibi haqidagi Nizom" 1-ilovaga muvofiq;

Ta'lim jarayonini boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Metodika bolimi(Q.Bekbawliev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bilan hamkorlikda "Umumta'lim muassasalari faoliyatida avtomatlashtirilgan axborot tizimi

bilan ishlash va arxivlashtirish tartibi haqidagi Nizom” talablaridan kelib chiqqan holda, maktab rahbariyati uchun qisqa o‘quv kursini yaratish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari boshliqlariga:

a) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining o‘z faoliyati bo‘yicha jamoatchilik oldida elektron hisobot berishi tartibini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 16-iyuldagi 444-sonli qaroriga muvofiq:

davlat organlari va tashkilotlariga yagona reyestrda kiritilgan axborot tizimlarining funksional vazifalarini takrorlaydigan axborot tizimlarini ishlab chiqish va foydalanish taqiqlanganligi;

yagona reyestrda kiritilgan axborot tizimiga nisbatan tezkor, qulay, samarali, kamxarj va xavfsiz foydalanish imkonini beradigan boshqa axborot tizimlarini ishlab chiqish va foydalanishga, istisno tariqasida, faqat raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohasidagi vakolatli organning xulosasiga muvofiq ruxsat berilishi inobatga olinsin.

b) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida:

umumiy o‘rta ta’lim muassasasi rahbarlarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishi hamda ma’lumotlarni to‘g‘ri va o‘z muddatida kiritish va raqamlashtirishga o‘tish bo‘yicha ish rejalari va reglamentlari tasdiqlanishini nazorat qilish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quv yili yakunida 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan Nizomda belgilangan tartibda hujjatlarning arxivlashtirilishini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 17-avgustdagi 187-sonli hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021 yil 26 martdagi 76-sonli buyruqlari bilan tasdiqlangan “Umumta’lim muassasalarining faoliyatida avtomatlashtirilgan axborot tizimining ishlash tartibi haqidagi Nizom” o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari v.v.b. Q.Bekbawliev va tegishliligi boyicha AKT joriy etish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i R.Xudaybergenov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



R.Reimov

Nukus sh.,
2021-yil 09 sentabr
201-son

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatida avtomatlashtirilgan axborot
tizimi bilan ishlash va arxivlashtirish tartibi haqidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari (keyingi o'rinlarda hududiy bo'linmalar deb yuritiladi) va umumta'lim muassasalarining faoliyatida avtomatlashtirilgan axborot tizimining (keyingi o'rinlarda Tizim deb yuritiladi) ishlash tartibini belgilaydi.

2. Tizim - umumta'lim muassasasi doirasida foydalanuvchi ishini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan ta'lim platformasi bo'lib, foydalanuvchilar o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlash maqsadida axborot tarmog'ini tashkil etadi.

3. Tizimning maqsadi:

o'quv jarayonini boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

o'qituvchilarni ortiqcha yukdan ozod etish, o'quv jarayonining shaffofligini oshirish;

o'quv jarayonining borishini va ta'lim dasturini o'zlashtirish natijalarini elektron shaklda qayd etishni ta'minlash;

ta'lim jarayonini boshqarish muammolarini hal qilish uchun o'quv jarayonida hosil bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;

umumta'lim muassasasi o'quv jarayonini avtomatlashtirilgan holda boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish;

ta'lim muassasalari xodimlarining qog'oz shakllarini yuritishdagi vaqtini qisqartirish hisobiga byudjet mablag'larini tejash va tejalgan mablag'larni xalq ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirish.

4. Tizimning vazifasi quyidagilardan iborat:

elektron jumal va kundalikni yuritish;

ta'lim jarayonini sifatli monitoring qilish;

o'quvchilarning davomati va o'zlashtirishi haqidagi ma'lumotlarni saqlash;

hujjat shaklida rasmiylashtirish uchun ma'lumotlar bazasida saqlanadigan ma'lumotlarni qog'ozga chop etish;

barcha fanlar bo'yicha baholarni istalgan vaqtda onlayn kirish hamda ko'rish imkoniyati;

o'qituvchilar va ma'muriyatning davriy hisobotlarini avtomatlashtirish;

ota-onalarga ularning farzandlarining davomati va o'zlashtirishi haqida

o'z vaqtida xabar berish imkoniyati.

Tizim, umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari (XTV, xalq ta'limi boshqaruv organlari, XTV tizimidagi umumta'lim muassasalari) o'rtasida ijtimoiy tarmoqlararo hamkorlikni qo'llab - quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

5. Tizim ijtimoiy hamkorlik yordamida ta'lim oluvchilarning tarbiyaviy samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ta'lim muassasasida ijtimoiy kommunikatsiyalarni shakllantirish, tarmoq madaniyatini yaratish va o'quvchiga ijodiy, o'zini-o'zi rivojlantirishi uchun maydoncha yaratadi.

Tizim tomonidan o'quvchilarning davomatini va o'zlashtirishini qayd etish, ta'lim faoliyatining barcha ishtirokchilarining o'zaro hamkorligini rivojlantirish, tarmoqlararo ijtimoiy kommunikatsiya madaniyatini oshirish, jamoatchilik tomonidan yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonini faollashtirish, umumta'lim muassasasining nufuzi, pedagoglarning malakasi va ijodiy faolligini oshirish bilan birgalikda o'quv jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aks ettiradigan vazifalarni o'z ichiga oladi.

6. Tizim foydalanuvchilari - xalq ta'limi boshqaruv organlari xodimi, umumta'lim muassasasining ma'muriyati, umumta'lim muassasasi xodimi, o'qituvchi, o'quvchining ota-onasi yoki uning qonuniy vakili, o'quvchining o'zi va sinf rahbarlari hisoblanadi.

7. Tizimdagi imkoniyatlar mazkur Nizomga ilova qilingan.

2 -bob. Tizim bilan ishlash qoidalari va tartibi

8. Tizim administratori yaratilgan dasturiy-texnik muhitning to'g'ri ishlashini ta'minlaydi.

9. Foydalanuvchilar elektron jurnalga kirish rekvizitlarini oladilar.

10. Sinf rahbarlari jurnalni o'z vaqtida* to'ldiradilar va ko'rsatmalarga muvofiq o'quvchilar va ularning ota-onalari haqidagi ma'lumotlarning to'g'riligini nazorat qiladilar hamda ota-onalar bilan yozishmalar olib boradilar (lozim bo'lgan taqdirda).

11. O'qituvchilar o'quv dasturlari va ularning o'tishi, o'quvchilarning o'zlashtirishi va davomatlari, uy vazifalarini joriy, chorak (yarim yillik), yillik, imtihon va yakuniy baholarni qo'yish to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq ma'lumotlarni to'liq va o'z vaqtida kiritib boradilar.

12. Ta'lim muassasasi direktorining o'rinbosarlari va ta'lim muassasasi administratorlari elektron jurnalni yuritish ustidan har haftada tizimning maktab ichidagi hisoboti orqali elektron jurnalni to'ldirishning to'liqligi va o'z vaqtida bajarilishini nazorat qiladilar.

13. Ota-onalar elektron kundalikdan foydalanishda faqat o'zlarining profillari orqali farzandlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rishlari hamda o'qituvchilar bilan yozishmalarni yuritishlari mumkin.

* Sinf rahbarlari elektron jurnalni o'z vaqtida yuritishi deganda — bu o'quvchining darsga kelmagan kunida ham uning bor yoki yo'qligi, unga baho qo'yilishi kabi holatlarni, o'quvchining shaxsiy faylidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etgandan so'ng zudlik bilan yangilab borish, ota-onalarga maktab/sinfdagi voqealar hamda o'qish jarayoni to'g'risida xabarlarni berib borishi tushuniladi

14. Majburiyat:

DIREKTOR:

- a) 26-avgustgacha bo'lajak o'quv yili uchun o'quv dasturini tasdiqlaydi.
- b) 26-avgustgacha kelayotgan o'quv yilida o'qituvchilarning o'quv yuklamalarini tasdiqlaydi.
- d) 2-sentabrgacha kelayotgan o'quv yili dars jadvalini tasdiqlaydi.

TIZIM ADMINISTRATORI:

- a) jadvalga muvofiq yoki lozim bo'lgan taqdirda o'qituvchilar, sinf rahbarlari va ota-onalarga elektron jurnaldan foydalanishni to'liq o'rgatish uchun manzil tashkil etadi.
- b) elektron jurnal va unga aloqador tizimlarning texnik ishlashi, shuningdek, ma'lumotlarning zahira nusxalarini yaratish va qayta tiklangan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun javobgar hisoblanadi.
- d) maktab xodimlari, o'quvchilari ro'yxatini yuritadi va ularni buyruqlar asosida yangilab turadi.
- e) ta'lim-tarbiya bo'yicha direktor o'rinbosarlariga elektron o'zlashtirish va davomat yozuvlarining qog'oz nusxalarini topshiradi.
- f) har oyda va o'quv davri oxirida o'qituvchilarning elektron jurnallar bilan ishlashi to'g'risida hisobot tayyorlaydi.
- g) direktor buyrug'i asosida yangi o'quv yilining boshlanishi, o'quv yilining yopilishini va o'quvchilarni sinfdan sinfga elektron tarzda o'tkazilishini amalga oshiradi.

TA'LIM-TARBIYA BO'YICHA DIREKTOR O'RINBOSARLARI:

- a) Hisobot davri tugagandan so'ng, direktor bilan kelishilgan holda, elektron jurnallar ma'lumotlarini, sinf ro'yxati, o'zlashtirish va davomat haqidagi qaydnomalarni qog'ozga (varaqlar har ikki tomoniga chop etib) o'tkazishni tashkil etadi. Ma'lumotlar to'g'riligini o'z imzosi va tegishli sana bilan tasdiqlaydi.
- b) Arxivlash uchun ish yurituvchi kotibga o'zlashtirish va davomat haqidagi yozuvlarining qog'oz nusxalarini topshiradi.

ISH YURITUVCHI:

O'qish davri tugagandan so'ng, o'zlashtirish va davomat haqidagi yozuvlarning qog'oz nusxalarini arxivlashtiradi (raqamlaydi, tikadi, reyestriga kiritadi).

O'QITUVCHI:

- a) Elektron jurnal o'qituvchi tomonidan dars kuni to'ldiriladi (baho qo'yish, darsda o'quvchilarni davomatini belgilash, uy vazifasi va dars mavzusini kiritish (yangilash).
- b) Agar fan o'qituvchisi kasal bo'lsa, hamkasbini almashtirgan o'qituvchi belgilangan tartibda elektron jurnalni to'ldiradi (darsni almashtirish uchun jurnalga o'z elektron imzo va boshqa ma'lumotlarni kiritadi).
- d) elektron jurnallarning har kuni muntazam va to'g'ri to'ldirilishi uchun javobgardir.
- e) yozma nazorat (test) ishlari o'tkazilgan taqdirda o'qituvchi tomonidan ishni tekshirishi va o'quvchilarga ish uchun baho qo'yishini quyidagi muddatlarda amalga oshiradi:

- matematika (algebra) fanidan 5-8-sinflarda nazorat diktantlari va testlari tekshirilib va keyingi darsga, 9-sinflarda uch kun davomida elektron jurnalga

kiritiladi;

- o'zbek, rus va ingliz tilidagi bayon va insholar, yozma ishlar 5-8-sinflarda bir haftadan kechiktirmay tekshiriladi va elektron jurnalda ko'rsatiladi, 9-11-sinflarda 10 kundan kechiktirilmay elektron jurnalga kiritilishi lozim;

f) 9-11-sinflarda matematika (algebra), fizika, kimyo fanidan testlar 4 kundan ortiq bo'lmagan muddatda tekshiriladi va elektron jurnalga kiritiladi.

g) "Sinf jurnalini yuritish bo'yicha yo'riqnoma" ko'rsatmalariga muvofiq, o'qituvchining haftalik yuklamasidan kelib chiqqan holda o'quvchilarning hafta davomida to'plashi kerak bo'lgan baholarni yig'ishi uchun javobgardir. O'quvchilarni chorak (yarim yillik) uchun obyektiv attestatsiyadan o'tkazish uchun kamida uchta baho (haftalik yuklamasi 1 soat) va kamida 5 ball (o'quv yuklamasi haftasiga 2 yoki undan ko'p soat), o'quvchilarni bilim sifatini yozma nazorat, laboratoriya, amaliy ishlar bo'yicha hisobga olgan holda majburiy tekshirilishi shart. O'quv davri boshlanishidan boshlab dastlabki 2 hafta (haftalik 1 soat yuklama bilan 3 hafta), ballarning to'planishi hisobga olinmaydi. Uchinchi hafta oxirida kamida 1 ta baho, 4 hafta oxirida haftasiga 1-2 soatlik predmetlar uchun 2 ta baho bo'lish talab qilinadi. Ko'p sonli soatlar bo'lgan predmetlar uchun baholar soni ortadi. Darslarda qatnashmagan o'quvchilar uchun baholar yig'ish tartibi qo'llanilmaydi. Agar o'quvchi ketma-ket 2 yoki undan ko'p darsda qatnashgan bo'lsa (ta'tildan keyingi dastlabki ikkita dars hisobga olinmaydi), u holda o'qituvchi unga baho qo'yishi kerak.

h) Ta'lim-tarbiya bo'yicha direktor o'rinbosari elektron jurnalda qayd etgan e'tirozlarni bartaraf etadi.

i) Dars yoki yozma ish bajarilgan kun (sana) ustuniga o'z vaqtida belgi qo'yadi. Elektron jurnalga faqat belgilangan vazifalar uchun va topshiriq turini majburiy ko'rsatgan holda belgi qo'yadi. Baholarni to'g'rilash va "o'tgan sana bilan" kiritish taqiqlanadi. Yozma ishlarning baholari yozma ishlarni tekshirish me'yorlarida nazarda tutilgan muddatda qo'yiladi.

j) Kalendar-tematik rejalashtirishning o'z vaqtida va to'liq bajarilishi uchun javobgardir.

k) tashqaridan begonalarning tizimga kirishida o'z rekvizitlarining saqlanishi, ma'lumotlarining xavfsizligi uchun javobgardir.

l) o'quvchilarni elektron jurnal bilan ishlashiga ruxsat berish qat'iyan man etiladi (faqat ko'rish uchun).

SINF RAHBARI:

a) elektron jurnalda o'quvchining darsda qatnashmaganligi sababini aks ettirishi kerak (k-kasal, kq-kechga qoldi, dq-uzrli sabablarga ko'ra darsni qoldirganlik, s-sababsiz darsga katnashmaslik).

b) sinf ro'yxati hamda o'quvchilar va ularning ota-onalari haqidagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgardir. Ota-onalar va o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini to'ldirib boradi. Muntazam ravishda, oyiga kamida bir marotaba, ma'lumotlarning o'zgarishini tekshiradi va o'zgarishlar mavjud bo'lgan taqdirda, tegishli o'zgartirishlar kiritib boradi.

d) elektron jurnal ma'lumotlaridan olingan hisobotlar orqali ota-onalarga farzandlarining o'zlashtirishi va davomati holati to'g'risida xabar berib boradi.

e) O'qish davri tugagandan so'ng, direktorning Ta'lim-tarbiya bo'yicha o'rinbosarlariga, o'quvchilarning darsdagi o'zlashtirishi va davomatlari to'g'risida

hisobotlarni qog'oz variantda taqdim etadi.

f) onlayn o'qish davrida o'quvchilarning davomati avtomatlashtirilgan ravishda nazorat qilinmaydigan holatlarda o'quvchilarining davomatini nazorat qilish;

g) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta tashabbusi doirasidagi tadbirlarni yoritish uchun tizimning axborot va yangiliklar funksiyalaridan foydalanish;

h) tashqaridan begonalarning tizimga kirishida o'z rekvizitlarining saqlanishi, ma'lumotlarining xavfsizligi uchun javobgardir.

i) o'quvchilarni elektron jurnal bilan ishlashga ruxsat berish qat'iy man etiladi (faqat ko'rish uchun).

15. O'quvchining ota-onalariga farzandlarining o'zlashtirishi va davomati holati to'g'risida xabarlarni elektron tarzda ma'lumot berish.

Elektron jurnal yordamida o'zlashtirishi natijalarini kuzatishda o'quvchilar va ularning ota-onalariga (qonuniy vakillariga) ta'lim muassasasi xodimlari bilan bog'lanmasdan (avtomatik ravishda) ma'lumotni tezda olish imkoniyati beriladi. Elektron shakllaridan foydalana olmaslik yoki xohlamasliklarini bildirgan ota-onalar (qonuniy vakillar) uchun, o'quv natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar, o'quvchining o'zlashtirishi to'g'risidagi ma'lumotlarni kamida haftasiga bir marta chop etish yo'li bilan taqdim etilishi kerak. O'quvchilar va ularning ota-onalariga (qonuniy vakillariga) ma'lumot yetkazib berish kelishilgan shaklda, xususan, ular ko'rsatgan aloqa ma'lumotlariga muvofiq yoki mustaqil olib ketish shaklida ko'rsatilishi mumkin.

O'quvchilar va ularning ota-onalariga (qonuniy vakillariga) hisobot davri (chorak, yarim yil va boshqalar) uchun o'quvchilarning yakuniy muvaffaqiyati prognozi to'g'risida muntazam ravishda ma'lumot berish tavsiya etiladi.

Imtihon testlarining yakuniy bahosi to'g'risidagi ma'lumotlar o'quvchilar va ularning ota-onalariga (qonuniy vakillariga) elektron shaklda, ishni tekshirish tugagandan so'ng 24 soatdan kechiktirmay taqdim etilishi kerak.

16. Vazirlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari:

umumta'lim muassasalarini kompyuterlar bilan jihozlash va Internet tarmog'iga ulash (minimal talablar – TAS-IX hududida Internet tarmog'iga ulanish (kamida 10 Mbit/sek., tavsiya etilgan talablar - 100 Mbit/sek.);

Tizimdan foydalanishda ta'lim muassasalari faoliyatida yuqori ko'rsatkichlarga erishishlariga ko'maklashish;

axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi uchun Tizimni attestatsiyadan o'tkazish;

elektron jurnalga kiritilayotgan ma'lumotlarni o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq kiritilishining monitoringini olib boorish vazifalarini bajaradilar.

17. Elektron jurnalga ma'lumotlar xato kiritilgan taqdirda, tizim foydalanuvchisi tizimga o'zgartirish yoki tuzatish kiritish jarayonida majburiy ravishda tizimda ushbu o'zgartirish yoki tuzatish yuzasidan izoh qoldirgan holda, tegishli o'zgartirishlarni amalga oshiradi.

3-bob. Elektron jurnal foydalanuvchilarining majburiyatlari:

18. Tizimga kirish huquqiga ega bo'lgan foydalanuvchilarga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

Tizimga yuklangan va kiritilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi va dolzarbligini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida" 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-sonli Qonuni talablariga rioya etish;

Tizimga joylashtirilgan axborotlarga nisbatan maxfiylikka rioya qilish bilan birgalikda unga cheklangan foydalanuvchilarni belgilash;

Tizimning foydalanuvchilari shaxsiy loginlari va parollarini oshkor qilmaslik va sir saqlash foydalanuvchilarning o'zi tomonidan ta'minlanadi.

Tizimning shakllanishi va amaliyot jarayonida foydalanuvchilarga zaruriyat tug'ilganda, qo'shimcha majburiyatlar belgilanishi mumkin.

4-bob. Arxivlashtirish

19. O'quv yili yakunida maktab direktori tomonidan tasdiqlangan, o'quvchilarning o'zlashtirishi haqidagi qaydnoma, o'quvchilarning davomati haqidagi qaydnoma va pedagogik kengash qarori chop etilib, yig'ma jild shaklida tikib, muhrlab, arxivga saqlash uchun topshiriladi.

20. Arxivda saqlanish uchun topshirilgan hujjatlar 25 yil davomida saqlanadi.

21. Saqlanish muddati tugagan hujjatlar tuman XTB moliya bo'limi vakili ishtirokida, dalolatnoma tuzish orqali, arxiv hisobidan chiqariladi.

22. Boshqa ma'lumotlar, elektron jurnallar va kundaliklarning avtomatlashtirilgan axborot tizimida qayd etiladi va saqlanadi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

23. Tizim foydalanuvchilari davlat umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga tegishli barcha axborotlarning o'z vaqtida, haqqoniy, to'liq va sifatli kiritilishi, shuningdek, mazkur Tizimning axborot xavfsizligi choralari ta'minlash uchun javobgar hisoblanadilar.

24. Hududiy bo'linmalar rahbarlari Tizimga axborotlarni haqqoniy, to'liq va sifatli kiritishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadilar.

25. Vazirlikning Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i Tizimning joriy etilishini muvofiqlashtirish va monitoringi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

26. O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan nodavlat umumta'lim muassasalari tomonidan ta'lim jarayonida Tizimdan foydalanish Vazirlik bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

27. Mazkur Nizom talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar qonunga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Umumta'lim muassasalari faoliyatida
avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishlash va
arxivlashtirish tartibi haqidagi nizomga
ILOVA

Elektron jurnalning imkoniyatlari:

Barcha foydalanuvchilarga tizimda shaxsiy sahifalari bilan ishlashda rasmni yuklab olish, shaxsiy va aloqa ma'lumotlarini tahrirlash, maxfiylik sozlamalarini tahrirlash, parolni tiklash uchun sozlamalarini tahrirlash, parolni o'zgartirish, bildirishlarni (uvedomleniya) sozlash, do'stlarni toifalarga ajratish hamda tashqi ijtimoiy tarmoqlarda (ochiq kontent uchun) axborotni (yangiliklarni) nashr qilish imkoniyati yaratilgan.

Tizimdan foydalangan holda umumta'lim muassasalari foydalanuvchilari uchun tashkilot haqida umumiy ma'lumot kiritish, muassasada o'tkaziladigan yoki o'tkazilgan tadbirlar haqida xabarlarni yuklash, tashkilot tuzilmasi, tashkilot rahbarlari haqidagi yangiliklar, hujjatlar, axborotlarni nashr etish, tashkilotning profilini nashr etish va ko'rish, tashkilot haqidagi ma'lumotlarni tahrirlash, tashkilot haqida ma'lumotni olib tashlash, ommaviy xabar (rassilka) yaratish, foydalanuvchilarning muayyan toifalariga xabar yuborish va xabarni qabul qiluvchilarni tanlash imkoniyatlari yaratilgan:

1. Tizimda o'quv jarayoniga doir vazifalar parametrlarini sozlash imkoniyati yaratilgan, shu jumladan:

- umumta'lim muassasasi haqidagi asosiy ma'lumotlarni kiritish va o'zgartirish;
- o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga muvofiq turli baholash tizimlarini tanlash imkoniyati;
- hisobot jarayonlarini boshqarish;
- sinfxonalarini va mashg'ulot o'tkaziladigan joylarni administratsiyalash;
- fanlarni kiritish va boshqarish;
- maktab profilining oshkoralik parametrlarini belgilash;

2. O'qituvchilar uchun baholash muddatini tartibga solish imkoniyati bilan birgalikda quyidagi sinflarni boshqarish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi:

- tizimda sinflarni yaratish;
- sinf ma'lumotlarini tahrirlash;
- sinf logotipini tanlash va almashtirish;
- sinfni tizimdan olib tashlash;
- sinfda o'quv guruhlarini yaratish va sozlash;
- o'quv yili oxirida sinf yillik tarixi bilan ishlash.

3. Dars jadvalini administratsiyalashtirish imkoniyatlari:

- darslar va qo'ng'iroqlar jadvalini kiritish;
- dars jadvalini boshqarish;
- dars jadvalini tahrirlash;

- foydalanuvchilar kalendar rejalarini dars sahifalarini, jurnallarni, o'quvchilarning kundaliklarini, o'qituvchilar uchun jadvallarni shakllantirish;

- "o'qituvchi-mavzu-sinf" aloqasini shakllantirish;

- dars hisoblagichi;

- darsdagi ishlarning turlari ro'yxati.

4. Darslik va fan jurnali bilan ishlash imkoniyatlari:

- Fan jurnalini ko'rish;

- sinf o'quvchilarining ishtiroki haqida ma'lumot kiritish;

- sinf o'quvchilarining yakuniy ilmiy faoliyati haqida ma'lumot kiritish;

- jurnal sahifasini rangli yoki qora va oq rejimlarda ko'rish;

- jurnaldagi ma'lumotlarni printer orqali chop etish;

- jurnaldagi ma'lumotlarni "MS Excel"ga eksport qilish va undan import qilish;

- jurnallarda o'rtacha baholashni hisoblash uchun namunaviy ishlarning darajasini belgilash imkoniyati.

5. Uy vazifalarini boshqarish imkoniyatlari:

- kiritilgan parametrlar orqali uy vazifalarini izlash;

- uy vazifalari ro'yxatini shakllantirish;

- uy vazifasini yaratish;

- fayllarni uy vazifasiga biriktirish;

- uy vazifasini tahrirlash;

- uy vazifasini olib tashlash.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining

2021-yil "09" sentabrdagi

201 -son buyrug'iga

2-ILOVA

2021-2022 o'quv yilida qog'oz shaklidagi jurnaldan ozod etilib kundalik avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan faoliyat olib boriladigan maktablar ro'yxati

№	№	Viloyat	tuman	Maktab raqami	Maktab manzili
1	1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	1-sonli IDUM	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri T.Qaipbergenov ko'chasi 45-uy
2	2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	2-sonli IDUM	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri Bilim bulagi kuchasi 2 bino
3	3	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	3-maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, T.Kaipbergenov ko'chasi 24 bino
4	4	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	4-maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, A.Temur ko'chasi 42 bino
5	5	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	5- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Shimbay guzari, 17 bino
6	6	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	6- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Ulli yel ko'chasi, 6 bino
7	7	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	7-maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, May jap ko'chasi 25 bino
8	8	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	8-maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Saxauatli insan ko'chasi 30 bino
9	9	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	9- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, A.Dosnazarov 135 A bino
10	10	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	10- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Abdambetov ko'chasi, raqamsiz bino
11	11	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	11- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Mukumiy ko'chasi, 12 bino
12	12	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	12-maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, M.Jumanazarov ko'chasi, 111 bino
13	13	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	13- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Sanatormaya ko'chasi, raqamsiz bino
14	14	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	14-maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Abay ko'chasi raqamsiz bino
15	15	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	15- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Shoraxan ko'chasi, 50 bino
16	16	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	16- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Paraxatshilik ko'chasi, 14 bino
17	17	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	17- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, A.Dosnazarov ko'chasi, raqamsiz bino
18	18	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	18- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, "Bayterek" MFY, Xamza ko'chasi 30 bino
19	19	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	19- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, 22 kichik tuman, raqamsiz bino
20	20	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	20-maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Xojeli guzaray 43 bino
21	21	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	21-maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Sh.Musayev ko'chasi 3 bino
22	22	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	22- sonli IDUM	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Aktal koshesi, raqamsiz bino
23	23	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	23-maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi 1 bino
24	24	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	24-maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Amudarya ko'chasi, raqamsiz bino
25	25	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	25- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Xojeli guzaray, 45 bino
26	26	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	26- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Darbent, raqamsiz bino
27	27	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	27- maktab	Nukus shahri, Karakalpakstan 60 jilligi ko'chasi, raqamsiz bino
28	28	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	28- sonli IDUM	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Aralbayev kuchasi, raqamsiz bino
29	29	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	29- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, "Anasay" MFY, raqamsiz bino
30	30	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	30- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, "Bestobe" MFY Shamshirak ko'chasi 12/1 bino
31	31	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	31- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, "Gone kala" MFY Karakalpakstan ko'chasi 41 bino
32	32	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	32- maktab	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, A.Temur ko'chasi, raqamsiz bino
33	33	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	33- sonli IDUM	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Almazar ko'chasi, raqamsiz bino

